



## GLAUKOMA KASALLIGI VA UNI DAVOLASH USULLARI

*Sotvoldiyev Abdug'ulom Karimovich**Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi**Maxsus fani o'qituvchisi*

Gepatitning o'tkir va surunkali turlari mavjud. Surunkali hepatit o'limga olib keluvchi jigar sirrozi va saratoni kabi kasalliklar asoratiga sabab bo'lishi mumkin.

Gepatit A — kasallikning eng ko'p uchraydigan, ammo boshqalariga nisbatan xavfsizroq turi hisoblanadi. U deyarli doim o'tkir kechadi va surunkali bo'lmaydi, o'limga va boshqa turlarga nisbatan jiddiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Nisbatan yuqori kasallanish aholi sifatli ichimlik suv bilan yaxshi ta'minlanmagan, sanitariya – gigiyena sharoiti nochor bo'lgan hududlarda kuzatiladi. Shu bilan birgalikda, bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va maktablarda o'zaro muloqot jarayonida hepatit A kasalligini yuqtirib olish ehtimoli yuqori bo'ladi.

«Hozirgi kunda bizda Virusli hepatitlarning A, B, C, D, Y turlari aniqlangan. Shulardan bittasi verusli hepatit A hisoblanadi. Virusli hepatit A tibik ichak o'tik

infeksiyalari turiga kirib, bugungi kunda bolalar orasida, asosan, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmaganligi sababli ko‘p uchrab turadi».

### «Kir qo‘llar kasalligi»



Ushbu kasallik «kir qo‘llar kasalligi» deb ham ataladi. Virusni, asosan, kirlangan suv, taom, yaxshi yuvilmagan idish hamda kasallangan odam bilan kontaktda bo‘lish orqali yuqtirish mumkin. Juhon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bemorlarning 90 foizini 10 yoshgacha bolalar tashkil etadi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda gepatit A bilan kasallanish holati bugungi kunda ham baland: joriy yilning 6 oyida, 2023 yilning shu davriga nisbatan, 1,7 barobarga o‘sishi kuzatilgan. Bu kasallik 4-6 yoshli va 7-14 yoshli bolalar o‘rtasida keng tarqalib bormoqda.

Ta’til vaqtida ham bolalar sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishni tavsiya beramiz. Bolalarning ochiq suv havzalarida cho‘milishini maslahat bermaymiz. Chunki bunday joylarda gigiyena qoidalariga amal qilish holatlari kuzatilmaydi. Cho‘milish davomida notoza suvlarni ichib, yutib yuborish holatlari bo‘ladi. Buning oqibatida maktab o‘quvchilari va undan kichik yoshdagи bolalar orasida verusli gepatit kasalligini yuqtirib olish holatlari bo‘ladi. Xalqimiz orasida stomatologlar orqali bu kasallik ko‘proq yuqishi haqida gaplar asossiz. Bunday holatlar statistikada ham qayd etilmagan. «Kir qo‘llar kasalligi» sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmagan holatda vujudga keladi. Shuning uchun, ota-onalar



farzandlarining ozodaligiga e'tibor qaratishining taraf doriman va shu narsani tilab qolaman».

### Kasallik alomatlari

Kasallik alomatlari qanday namoyon bo‘ladi?

«*Gepatit A'ning ham boshlang‘ich belgilari xuddi boshqa turlari kabi isitma, holsizlik, ich ketish, qayd qilish alomatlari bilan kechadi. Shunda ko‘pincha fuqarolarimiz uni grippga o‘xshash kasalliklar bilan adashtirib, uy sharoitida davolashga harakat qilishadi. Chunki kasallikning boshlanish davrida Gepatit A'ning tana va ko‘z oq pardasidagi sarg‘ayish kabi klinik belgilari qayd etilmaydi. Bu belgilar ikki haftadan keyingina namoyon bo‘ladi».*

### Davolash qanday kechadi ?

Shifokorlarga tayanib aytadigan bo‘lsak, o‘tkir virusli gepatit A bilan og‘rigan bemor holatiga qarab, kamida 10 kundan 50 kungacha shifoxonada yotib davolanadi. Jigar to‘qimasi to‘liq yangilanishi uchun esa 150-180 kun vaqt talab etiladi. Shu davr mobaynida bemor qat’iy parhezda bo‘lishi va jismoniy zo‘riqishdan saqlanishi zarur.

«Virusli gepatit A shifokor topshiriqlarini vaqtida bajarib, parhez va hamma tartiblariga amal qilinsa, tuzaladigan, shuningdek, asoratsiz o‘tib ketadigan kasallik. Gepatit A’ni yuqtirib olmaslik uchun nima qilish kerak? Farzandlarimizni bog‘chaga borgandan boshlab tozalikka o‘rgatishimiz shart. Bog‘chadan, maktabdan, ko‘chadan kelganida qo‘l yuvishga, uyni orasta tutib, shamollatib turishga odatlantirishimiz kerak. Gepatit A’ni yuqtirgan bemorlar ham yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yotqiziladi. Barcha xarajatlar esa davlat tomonidan bepul amalga oshiriladi».

### Qanday himoyalanish kerak?

Gepatit A bilan kasallanmaslik uchun avvalo tozalik va gigiyena qoidalariga qat’iy rioya qilish kerak. Ammo bu virus havo orqali yuqish xususiyatiga ega ekanini hisobga olib, shifokorlar undan himoyalanishning eng samarali usuli sifatida emlanishni tavsiya etadilar.



«Emlashning roli juda ham katta. Bundan fuqarolarimiz qo‘rqishi kerak emas, aksincha, to‘g‘ri talqin qilish kerak. Ko‘pchilikda yengil o‘tarkan, tuzalib ketarkan, emlamasa ham bo‘lar ekan, degan. Bu noto‘g‘ri, bir marta gepatit A’ga qarshi vaksina olgan odam 25 yilgacha kasallikni yuqtirmaydi. Bundan tashqari, Gepatit A bilan kasallangan odam ham emlanmaydi. Chunki unda kasallikka qarshi immunitet paydo bo‘ladi va u qaytda virus yuqtirmaydi».

### **Kasalni davolagandan ko‘ra, oldini olgan oson**

So‘nggi vaqtarda ijtimoiy tarmoqlarda bolalarni yuqumli kasallikkardan himoya qilish borasida olib borilayotgan chora- tadbirlarni noto‘g‘ri talqin qilish, mavjud vaziyatni shubha ostiga qo‘yish kabi chiqishlar aholi o‘rtasida norozichiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Aslida yuqumlik kasalliklar va turli zararli viruslardan himoyalanish kishining o‘ziga bog‘liq.

Xalqimizda “kasalni davolagandan ko‘ra, oldini olmoq oson” degan naql bor. Kasallikka qarshi emlanishdan tashqari, sog‘lom turmush tarziga, shaxsiy gigiyena qoidalariiga, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va saqlash jarayonlarida sanitariya- epidemiologik qoidalarga rioya qilish muhimdir. Bu esa ortiqcha xarajatlarning oldini olib, eng muhimi o‘zingiz va farzandlaringiz kasallik bilan og‘rimasligiga muhim qadam bo‘ladi.

### **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. M.F.Ziyayeva. Z.O.Rizayeva. “Bolalarda xamshiralik parvarishi”. Toshkent, “Fan va texnologiya” 2012 yil.



2. X.N Fayziyev. «Sestrinskiy uxod za detmi» Toshkent, «Ilm ziyo» nashriyoti, 2008 yil
3. K.S Inomov. «Pediatriyada xamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil